

ARAB MATBUOTIDAN TARJIMALAR TAHRIRI: SARLAVHA ANSAMBLI VA IQTIBOSLAR TARJIMASIGA NISBATAN MUHARRIR BAHOSI

Sirojiddin Sotvoldiyev

O'zJOKU o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarjima matn tahririda e'tibor qaratish zarur bo'lgan jihatlar haqida so'z boradi. Arab matbuotidan qilingan tarjimalar tahlil qilinib, unda muharrirning o'рни va vazifalari tahlil etiladi. Birgina sarlavha ansambli va iqtiboslar tarjimasi tahririda adekvatlik qanchalik muhim ekaniga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: tarjima matn, tahrir, muharrir, sarlavha ansambli, iqtiboslar, arab matbuoti, adekvatlik.

Аннотация. В данной статье говорится об аспектах, на которые необходимо обратить внимание при редактировании переведенного текста. Анализируются переводы из арабской прессы, а также анализируются роль и задачи редактора. Единый ансамбль заголовков и редактирование перевода цитат подчеркивают важность адекватности.

Ключавие слова: текст перевода, редактирование, редактор, ансамбль названий, цитаты, арабская пресса, адекватность.

Abstract. This article talks about aspects that you need to pay attention to when editing translated text. Translations from the Arabic press are analyzed, and the role and tasks of the editor are analyzed. A single ensemble of headings and editing of translations of quotations emphasize the importance of adequacy.

Key words: translation text, editing, editor, ensemble of titles, quotes, Arabic press, adequacy.

So'nggi yillarda mamlakatimizning arab davlatlari bilan hamkorligi har tomonlama rivojlangani sari o'zbek va arab tillari o'rtasidagi aloqalar ham yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Buni o'zbek tilidan arab tiliga va aksincha arab tilidan ona tilimizga badiiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy matnlar tarjimalarining ko'paygani ham tasdiqlaydi. Bu jadal hamkorlik ortida ommaviy axborot vositalarining hissasi bor, albatta. Ayni vaqtda O'zbekiston Milliy axborot agentligi¹ va "Xalq so'zi" gazetasining veb-sayti² xabar va yangiliklarni arab tilida ham o'z o'quvchilariga yetkazib turibdi.

¹ <https://uza.uz/ar/> (murojaat sanasi: 09.01.2024)

² https://xs.uz/ar (murojaat sanasi: 09.01.2024)



Arab matbuotida e'lon qilingan, yurtimizga bevosita aloqador xabar va maqolalarni esa "Dunyo" axborot agentligi tarjima qilib, o'zining internet hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalariga joylab bormoqda. Mazkur maqolada arab matbuotidan o'zbek tiliga o'girilayotgan tarjima materiallar tahriri, muharrirning tarjima matn bilan ishlashdagi o'rni, xususan, sarlavha ansambli va iqtiboslar tarjimasiga nisbatan muharrirning bahosi "Dunyo" AA materiallari asosida tahlil qilinadi.

Avvalo qayd etish kerakki, o'zbek tilida tarjima tahriri, uning kayfiyati, nazariy asoslari va metodologiyasi deyarli tadqiq etilmagan. Tarjima nazariyasi va tarjimashunoslik bo'yicha esa o'zbek maktabi allaqachon shakllanib ulgurgan. Shu sababli tarjima matn tahriri haqida gapirganda, o'zbek tarjima maktabi namoyandalarning tarjima jarayoniga doir xulosalari, ilmiy qarashlari va tarjima mahsullariga tayanilishi maqsadga muvofiqdir. Zero, tarjima matnning birinchi muharriri avvalo tarjimonning o'zi bo'ladi: tarjimasida ustida ishlaydi, tuzatish kiritadi, xorijiy tildagi so'z yoki iboraga o'zbekchadagi eng munosib muqobilini izlaydi. Tabiiyki, bu jarayon tahrirning muayyan elementlarini o'zida aks ettiradi.

Tarjimon qo'lidan o'tgan material muharrir qalami bilan yanada sayqallanadi: agar muharrir tarjima tilini bilsa, nur ustiga nur. Tarjimon ilg'amagan nozikliklarni-da payqaydi va tuzatadi. Agar asl matn tilini bilmaganda ham tahrirning mantiqiy asoslariga ko'ra ish ko'radi. Demak, tarjima matn tahririning nazariy asoslarini ishlab chiqishda tarjimon tahriri, tarjima tilini biluvchi muharrir tahriri va original matn tilini bilmaydigan muharrir tahriri aspektlarini hisobga olish o'rinli bo'ladi, nazarimizda. Yuqoridagi mulohazalar asosida "Dunyo" AA veb-saytida e'lon qilingan arab matbuotidan tarjimalardagi sarlavha ansambli va iqtiboslar tahririni tahlil qilib ko'ramiz.

Saudiya Arabistonining «Swift News» elektron nashrida e'lon qilingan «المراحل الرئيسية في تطوير الحماية القانونية للبيانات الشخصية في أوزبكستان» nomli maqolaning sarlavhasi o'zbek tiliga «O'zbekistonda shaxsiy ma'lumotlarni huquqiy himoya qilishni rivojlantirishning asosiy bosqichlari» deb o'girilgan³. Ma'lumki, sarlavha o'quvchi diqqat-e'tiborini birinchi bo'lib tortadigan, mediamatn haqida ilk taassurotni paydo qiladigan muhim tarkibiy element sanaladi. Sarlavha tarjimasidagi "shaxsiy ma'lumotlar" iborasi aslida "shaxsga doir ma'lumotlar" shaklida tahrir etilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki qonunchilikda shunday tushuncha mavjud va

³ O'zbekistonda shaxsiy ma'lumotlar huquqiy himoyasini mustahkamlash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar Saudiya Arabistoni OAV nigohida. – URL: <https://dunyo.info/uz/mir-ob-uzbekistane/%D0%8Ezbekistonda-shahsiy-malumatlar-%D2%B3u%D2%9Bu%D2%9Biy-%D2%B3imoyasini-musta%D2%B3kamlash-b%D1%9Eyicha-k%D1%9Eri-la-et-gan-chora-tad-bir-lar-sau-di-ya-arab-ist-on-i-o-av-ni-go-%D2%B3i-da> (murojaat sanasi: 07.01.2024)



iste'molda keng qo'llaniladi⁴. Qolaversa, arabcha matndagi “الشخصية” (“ash-shaxsiyya”) so'zi nisbiy sifat bo'lib, “...ga doir” yoki “...ga tegishli” degan ma'noda ishlatilishi mumkin. Sarlavha ansamblini tashkil qiluvchi sarlavha, rubrika, tagsarlavha, kirishlar (lidlar), iqtiboslar va anonslar tarjimasida yuqori darajada aniqlik, ya'ni adekvatlik muhim rol o'ynaydi.

Muharrir tarjimaning original tilini bilmasa-da, tarjima tilida keng iste'molda bo'lgan adekvat atamalardan voqif bo'lishi, o'rni kelganda tahrirdan kelib chiqib tarjimaga o'zgartirishlar kirita olishi muhim sanaladi. Shuningdek, axboriy tarjima matni bilan ishlayotgan muharrir zimmasida asl matnda keltirilgan iqtiboslarni tarjima tilida mavjud ekvivalentlari bilan almashtirish mas'uliyati ham turadi. Masalan, yuqoridagi xabarda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan iqtiboslar bor. Mazkur iqtiboslarni tarjimon o'z uslubida tarjima qilgan. Muharrir esa tarjima tahriri davomida iqtibos olingan manbalar bilan ishlab, zarur tuzatishlarni kiritishi kerak. Masalan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi⁵ning o'zbek tilidagi tasdiqlangan tarjimasida 12-moddasi “Hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga [o'zboshimchalik bilan aralashish], uy-joyi [daxlsizligi]ga, [uning] yozishmalari[dagi] sirlariga [yoki uning nomus] sha'ni va qadr-qimmatiga o'zboshimchalik bilan aralashish [tajovuz qilish] mumkin emas”, deya o'zgarishlar bilan talqin qilingan.

Konstitutsiyaning 31-moddasi esa tarjimada “Har kim [har bir inson] shaxsiy hayoti, shaxsiy va oilaviy sirlari daxlsizligi [shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish], sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega [shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega]”, deya to'liq aks etmagan. Oqibatda har ikki iqtibos tarjimasida adekvatlik yo'qolib, erkin tarjima ko'rinishida qolib ketgan. Bu esa tarjima tahririning faktlarni aniqlash-hujjatlashtirish funksiyasi bajarilmasligiga olib kelgan.

Ushbu maqola tarjimasida yana bir tahrirtalab fakt uchraydi: « في 14 يناير 2021، وقع رئيس أوزبكستان قانون تعديل قانون “المعلومات الشخصية” وبناءً على هذا الأساس، تم إضافة المادة 271 jumlasida «بعنوان “شروط خاصة لمعالجة البيانات الشخصية لمواطني جمهورية أوزبكستان” إلى القانون الحالي «O'zbekiston Prezidenti 2021-yil 14-yanvar kuni «Shaxsiy doir ma'lumotlar to'g'risida»gi Qonunga qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonunni imzolagani ma'lum qilingan. Shu asosda amaldagi Qonun «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashning alohida shartlari», deb

⁴ O'zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi qonuni. – URL: <https://lex.uz/acts/-4396419> (murojaat sanasi: 07.01.2024)

⁵ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – URL: <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights> (murojaat sanasi: 07.01.2024).



nomlangan 271-modda bilan to'ldirildi», deya o'g'irilgan. Tarjimada asl matndagi xato fakt tuzatilmagan. Muharrir ham buni bee'tibor qoldirgan. Birinchidan, qonun nomidagi imloviy xato o'quvchi diqqatini tortadi: «*Shaxsiy [shaxsga] doir ma'lumotlar to'g'risida*». Ikkinchidan, arabcha matnda ishlatilgan "271-modda" degan xato fakt tarjimada ham takror uchraydi. Aslida zikr etilgan Qonun 36 moddadan iborat bo'lib, 2021-yil 14-yanvarda unga 27¹-moddasi (prim-1) qo'shilgan. Tarjima matn muharriri mana shunga o'xshash fakt va ma'lumotlarning aniqligini tekshirishi, tahrir jarayonida hisobga olishi lozim.

Yoki "Misr ommaviy axborot vositalari BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Markaziy Osiyoning ekologik muammolari to'g'risidagi rezolyutsiya haqida yozmoqda"⁶ nomli xabarda uchraydigan tarjima matnlar tahririga diqqat qilaylik. Misrning "Aldiplomasy" elektron nashri joylashtirgan xabar sarlavhasi qisman tarjima qilingan yoki tahrirda qisqartirilgan. Sababi asl matn sarlavhasi anchayin uzun bo'lib, unda urg'u berilayotgan rezolyutsiya nomi ham to'liq keltirilgan: «*آسيا الوسطى في مواجهة التحديات البيئية: تعزيز التضامن الإقليمي من أجل التنمية المستدامة*» و«الازدهار». Tarjimasi: «Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo'lida mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash» shaklida berilgan. Arabchadagi «التحديات البيئية» birikmasi "global iqlim tahdidlari" deb o'g'irilishi xato bo'lib, aslida "ekologik muammolar", "ekologik tahdidlar" deyilishi to'g'ri bo'ladi. Chunki asl matnda "global", "iqlim" kabi so'zlar ishlatilmagan. BMTning rasmiy xabarida ham rezolyutsiya nomida bu so'zlar uchramaydi⁷: «Markaziy Osiyo ekologik muammolar qarshisida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo'lida mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash».

Shuningdek, maqolada ko'plab xalqaro hujjatlar, tashkilotlar nomlari uchraydiki, ularning tarjimasida adekvatlik g'oyatda muhim sanaladi. Masalan, asl matnda kelgan «*الصندوق الائتماني المتعدد لشركاء الأمن البشري في منطقة بحر الأرال*», ya'ni «Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'psheriklik trust fondi» nomi

⁶ Misr ommaviy axborot vositalari BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Markaziy Osiyoning ekologik muammolari to'g'risidagi rezolyutsiya haqida yozmoqda. – URL: <https://dunyo.info/uz/mir-ob-uzbekistane/misr-ommaviy-ahborot-vositalari-bmt-bosh-assambleyasi-tomonidan-%D2%9Babul-%D2%9Bilingan-markaziy-osiening-ekologik-muammolari-t%D1%9E%D2%93risidagi-rezolyuciya-%D2%B3a%D2%9Bida-ezmo%D2%9Bda> (murojaat sanasi: 09.01.2024)

⁷ Генеральная Ассамблея ООН приняла резолюцию о борьбе с экологическими проблемами в Центральной Азии. –URL: <https://news.un.org/ru/story/2023/12/1447922#:~:text=%D0%92%D0%BE%20%D0%B2%D1%82%D0%BE%D1%80%D0%BD%D0%B8%D0%BA%20%D1%87%D0%BB%D0%B5%D0%BD%D1%8B%20%D0%93%D0%B5%D0%BD%D0%B0%D1%81%D1%81%D0%B0%D0%BC%D0%B1%D0%BB%D0%B5%D0%B8%20%D0%9E%D0%9E%D0%9D.%D0%B8%D0%BC%D1%8F%20%D1%83%D1%81%D1%82%D0%BE%D0%B9%D1%87%D0%B8%D0%B2%D0%BE%D0%B3%D0%BE%20%D1%80%D0%B0%D0%B7%D0%B2%D0%B8%D1%82%D0%B8%D1%8F%20%D0%B8%20%D0%BF%D1%80%D0%BE%D1%86%D0%B2%D0%B5%D1%82%D0%B0%D0%BD%D0%B8%D1%8F%C2%BB> (murojaat sanasi: 09.01.2024)



tarjimada "...ko'p tomonlama sheriklik trast jamg'armasi..." shakliga o'zgargan. Demak, tarjima matni muharriri bu kabi keng iste'molda bo'lgan nomlarni bir nechta manbalar orqali tekshirib olishi, kerak o'rinlarda tuzatishlar kiritishi lozim.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, tarjima matni tahriri muharrirdan katta bilim va salohiyat talab qiladi. Tarjima tahririning oddiy tahrirdan farqli jihati ham shunda: muharrir so'zlarning munosib ekvivalentini topish, faktlarni tekshirish masalalarida mas'uliyat va javobgarlikni o'z zimmasiga olishga majbur bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sirojiddin Sotvoldiev. (2023). DICTIONARIES OF "MUSALLAS" PLACE IN ARABIC LEXICOGRAPHY. Innovative Development in Educational Activities, 2(11), 356–365. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8045500>

2. Сотволдиев, С. М. ўғли . (2023). АРАБ ЛЕКСИКОГРАФИЯСИДА МАНЗУМА МУСАЛЛАСЛАРНИ ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАРИ. Innovative development in educational activities, 2(23), 474–478. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10393710>

3. Sirojiddin Sotvoldiyev Maxammaddin o'g'li. (2023). IBN MOLIK HAYOTI VA UNING ARAB TILSHUNOSLIGIDA TUTGAN O'RNI. Innovative development in educational activities, 2(11), 444–453. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8045672>

4. Sirojiddin Sotvoldiyev. (2023, июнь 26). ARAB LEKSIKOGRAFIYASI TARIXI VA IBN MOLIK MUSALLAS LUG'ATLARINING TUZILISH PRINSIPLARI. THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD, London, United Kingdom. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8080680>

5. Sotvoldiev, S. (2023). PRINCIPLES OF COMPOSITION OF SCIENTIFIC-CRITICAL TEXT OF IBN SAYYID'S DICTIONARY" AL-MUSALLAS". THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 1(7), 62-66. <https://interonconf.org/index.php/ind/article/view/3009>

6. Sotvoldiev, S. (2022). PRINCIPLES OF COMPOSITION OF SCIENTIFIC-CRITICAL TEXT OF IBN SAYYID'S DICTIONARY" AL-MUSALLAS". Thematics Journal of History, 8(1).

<https://thematicsjournals.in/index.php/tjh/article/view/1171>

